

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI HUDUDIY STATISTIK GURUHLASH

Akbarova Barno Shuxratovna

TDIU, Statistika kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik innovatsion faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, ushbu sohadagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlarning hududiy tarkibi hamda mehnat unumdorligi dinamikasi to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: mehnat unumdorligi, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, innovatsion faoliyat.

Аннотация

Описаны основные показатели инновационной деятельности малого бизнеса и частного предпринимательства, территориальная структура инновационных товаров, работ и услуг, производимых предприятиями данной сферы, а также динамика производительности труда.

Ключевые слова: производительность труда, малый бизнес, частное предпринимательство, инновационная деятельность.

Abstract

The main indicators of the innovative activity of small business and private entrepreneurship, the territorial structure of innovative goods, works, and services produced by enterprises in this area, and the dynamics of labor productivity are described.

Keywords: labor productivity, small business, private entrepreneurship, innovative activity.

KIRISH

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish borasida qator chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonida ¹qayd etilganidek: "o'tkazilgan tahlil ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayapti. Bu borada ko'plab ko'rsatkichlarning mavjud emasligi va ishlar samarali muvofiqlashtirilmagani sababli mamlakatimiz so'nggi yillarda nufuzli va obro'li xalqaro tuzilmalar tomonidan aniqlanadigan Global innovatsion indeks reytingida ishtirok etmagan."

Shulardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizning xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik darajasini oshirish va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish maqsadida ushbu strategiya ishlab chiqildi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonida <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

Strategiyada “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga borib, Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish” belgilandi. Ushbu maqsadga erishish uchun eng avvalo, hududlarda joylashgan korxonalar, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishlari uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish borasida olimlar tomonidan bir qancha fikr-mulohazalar ilgari surilgan. Quyida ushbu sohadagi ayrim tadqiqotlar tahlil qilinadi. B. Salimov – mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi korxonalarining tovar aylanmasi va hududlardagi joylashuviga qarab kategoriyalarga ajratish taklifini ilgari surgan. M. A. Jumaeva – mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi salbiy tendensiyalarni bartaraf etishning innovatsion vositalar yordamida inklyuziv tadbirkorlik va inklyuziv biznesni rivojlantirish borasida tadqiqot olib borgan. S. M. Rahimov – oxirgi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari tadbirkorlikni rivojlantirishdagi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarga bag‘ishlangan. Sh. M. Qo‘chqorov – xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olim. Uning tadqiqotlari biznes muhitini yaxshilash va uning hududiy taqsimotiga oid. M. T. To‘xtaboyev – O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini hududiy taraqqiyot jihatidan tadqiq etgan olim.

Bu sohada ko‘plab ilmiy maqolalar va monografiyalar mavjud bo‘lib, ular kichik biznesning rivojlanishi, xususiy tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha taqsimoti va uning iqtisodiy samaradorligini baholash masalalariga bag‘ishlangan.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani yoritishda statistik kuzatish, jamlash, guruhlash, tanlanma kuzatish va tahlil qilish usullaridan keng foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

2025-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va mikrofirmalar soni 358,1 ming tani tashkil etdi. Har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 12,1 birlikni tashkil qildi.

2024-yilda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar quyidagi tarmoqlarda eng ko‘p uchragan: Savdo – 28 005 ta, Sanoat – 12 889 ta, Qishloq xo‘jaligi – 9 099 ta, Yashash va ovqatlanish xizmatlari – 6 502 ta, Qurilish – 3 921 ta, Tashish va saqlash – 2 750 ta, Axborot va aloqa – 2 916 ta.

O‘zbekiston Respublikasida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar soni 2015-yilda 624 ta ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 2 974 taga yetgan. Bu esa, innovatsiyalarni faollashtirish borasida amalga

oshirilayotgan ijobiy ishlar natijasi hisoblanadi. Natijada, shu yillar mobaynida: Mahsulot ishlab chiqarish hajmi amaldagi baholarda 409,8 mlrd. soʻmdan 10 667 mlrd. soʻmgacha yetdi. Xarajatlar miqdori esa 181,2 mlrd. soʻmdan 1 189,4 mlrd. soʻmgacha oshdi. Foydalilik darajasi 126,2 foizdan 796,8 foizgacha koʻtarildi. Buning natijasida samaradorlik koʻrsatkichi qariyb 6,32 martaga oshgan (1-jadval).

1-jadval
Oʻzbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik innovatsion faoliyatining asosiy koʻrsatkichlari (fermer va dehqon xoʻjaliklarisiz)¹

T/r	Koʻrsatkichlar	Yillar								
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar soni (birlik)	624	808	884	818	1223	1292	4038	3535	2974
2	Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar boʻyicha:									
	a) hajmi, mlrd.soʻm	409,8	1160,7	1681,8	1671,9	1224,3	7196,3	8455,4	14129,1	10667
	b) xarajatlar miqdori, mlrd.soʻm	181,2	351,4	354,8	211,4	715,3	1156,8	1939,9	1041,6	1189,4
	v) foyda summasi, mlrd.soʻm	228,6	809,3	1327	1460,5	509,0	6039,5	6515,5	13087,5	9477,6
	g) rentabellik darajasi, %	126,2	230,3	374,0	690,9	71,2	522,1	335,9	1256,5	796,8

2-jadval
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlarning hududiy tarkibi (fermer va dehqon xoʻjaliklarisiz), %²

Hududlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	2,1	3,0	1,8	3,0	2,9	1,6	1,6	1,2	1,0
Andijon	4,7	0,9	0,5	0,9	3,8	2,7	2,7	1,0	1,1
Buxoro	4,9	6,4	1,4	2,2	2,6	2,7	2,7	2,9	2,2
Jizzax	2,3	1,7	4,7	3,3	7,5	6,6	6,6	3,2	1,5
Qashqadaryo	1,2	0,9	0,8	0,5	0,3	3,9	3,9	2,9	8,4
Navoiy	8,7	3,3	1,7	1,7	5,8	4,4	4,4	3,3	5,9
Namangan	3,9	7,5	7,8	5,6	5,1	8,6	8,6	2,7	3,3
Samarqand	2,1	1,8	11,3	11,7	3,8	6,4	6,4	7,5	5,7
Surxondaryo	1,2	1,6	1,8	2,3	3,0	1,2	1,2	2,1	1,7
Sirdaryo	0,7	4,3	3,5	3,9	4,7	5,4	5,4	4,7	5,5
Toshkent	1,3	11,6	11,6	9,8	13,8	17,8	17,8	15,9	9,2
Fargʻona	6,3	3,7	4,9	5,8	15,1	7,0	7,0	10,4	4,6
Xorazm	3,0	2,5	4,7	3,3	5,8	7,2	7,2	0,5	1,6
Jami:	42,2	49,2	46,5	54,0	74,3	75,6	75,6	58,4	51,7

¹Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligining 2015-2023-yillar maʼlumotlari asosida hisoblangan.

²Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi 2015-2023-yillar maʼlumotlari

O‘zbekiston Respublikasi hududlarining innovatsiya jarayonlarida ishtirok etish darajasidagi tafovutlarni aniqlashda muhim ko‘rsatkichlardan biri ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlarning hududiy tarkibi hisoblanadi (2-jadval).

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shundan dalolat beradiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlarning hududiy taqsimotida farqlanishlar mavjud. Masalan, 2023-yilda jami innovatsion mahsulotlarning 9,2 foizi Toshkent viloyati hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ayni vaqtda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Andijon viloyatining bu boradagi ulushi past darajada bo‘lgan.

Hududlardagi innovatsion rivojlanishga ta‘sir etuvchi omillar Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida innovatsiya faoliyati rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- kichik biznes subyektlarida mablag‘ yetishmovchiligi;
- davlat tomonidan sohaning innovatsion faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning yetarli emasligi;
- innovatsiyalar borasida zaruriy ma‘lumotlarning yetishmovchiligi;
- ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida integratsiyaning zaifligi;
- hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida yuqori malakali kadrlar yetishmovchiligi, bu esa innovatsion salohiyatning pasayishiga olib keladi.

Ta‘kidlash joizki, bu omillar barcha hududlardagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga xos bo‘lib, yangiliklarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish yuqori xarajat talab etishi bilan izohlanadi. Shu sababli, bozor sharoitida muvaffaqiyatli ish yuritib, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanayotgan korxonalar, bu faoliyat bilan shug‘ullanmaydigan korxonalarga nisbatan yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishmoqdalar. Hududlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun tavsiyalar Mamlakatimiz mintaqalarida innovatsion faoliyat rivojlanishini ta‘minlash uchun quyidagi chora-tadbirlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- ichki va tashqi bozorda innovatsion mahsulotlarga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish;
- fan-texnika va ilmiy innovatsiyalar generatsiyasi sektorining natijadorligini oshirish;

- innovatsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida hududlarda kadrlar salohiyatini oshirish. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi bugungi kunda mamlakatimizda eng yirik mehnat bozori bo‘lib, mulkdorlarning o‘rta sinfini shakllantirishning asosiy omili, millionlab odamlar uchun daromad va farovonlik manbai hisoblanadi. Shu boisdan, ular o‘z biznesini rejalashtirish va rivojlantirish orqali iqtisodiyotimiz barqarorligini ta‘minlashdan eng ko‘p manfaatdor bo‘ladilar.

Mehnat unumdorligi va uning baholash metodologiyasi Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samaradorligini aniqlashning asosiy

ko'rsatkichlaridan biri bu mehnat unumdorligi hisoblanadi. Mehnat unumdorligi dinamikasini aniqlashda akademik S. G. Strumilin tomonidan tavsiya etilgan o'rtacha indeks metodidan foydalanish lozim deb topildi.

Tadqiqotimizda hududlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi mehnat unumdorligini aniqlash uchun quyidagi o'rtacha arifmetik indeksni qo'lladik:

$$I_w = \frac{\sum \left(\frac{Q_1}{T_1} : \frac{Q_0}{T_0} \right) \cdot T_1}{\sum T_1}$$

Bu yerda: Q_0, Q_1 – bazis va joriy davrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tomonidan ishlab chiqarilgan YaQQ hajmi (2023-yil bahosida);

T_0, T_1 – bazis va joriy davrlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlar soni.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat unumdorligi dinamikasi (oldingi yilga nisbatan, marta)¹

Hududlar	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	o'rtacha
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,051	0,050	0,049	0,049	0,055	0,049	0,048	0,048	0,049	0,055	0,055	0,051
Andijon	2,351	2,385	2,350	2,390	2,533	2,294	2,288	2,149	2,054	2,105	1,989	2,257
Buxoro	0,708	0,679	0,676	0,689	0,828	0,632	0,587	0,626	0,592	0,628	0,627	0,658
Jizzax	0,564	0,535	0,556	0,563	0,671	0,604	0,599	0,652	0,618	0,754	0,772	0,622
Qashqadaryo	2,676	2,529	2,609	2,583	2,704	2,664	2,664	2,651	2,361	2,407	2,195	2,544
Navoiy	0,322	0,278	0,310	0,305	0,353	0,301	0,307	0,262	0,237	0,256	0,229	0,285
Namangan	3,095	2,857	2,981	3,146	4,222	3,274	3,421	3,381	2,934	4,073	4,521	3,406
Samarqand	1,715	1,605	1,594	1,570	1,525	1,585	1,541	1,530	1,347	1,407	1,366	1,522
Surxondaryo	0,640	0,628	0,635	0,637	0,665	0,641	0,633	0,650	0,636	0,712	0,700	0,652
Sirdaryo	0,454	0,426	0,409	0,407	0,410	0,384	0,367	0,381	0,339	0,358	0,337	0,387
Toshkent	3,639	3,065	3,532	3,622	4,087	3,767	3,554	3,648	3,302	3,750	3,603	3,589
Farg'ona	1,310	1,155	1,243	1,255	1,472	1,271	1,244	1,323	1,192	1,432	1,374	1,294
Xorazm	0,514	0,484	0,491	0,483	0,571	0,510	0,469	0,559	0,491	0,542	0,535	0,513
O'rtacha	0,899	0,842	0,865	0,864	0,963	0,865	0,844	0,860	0,787	0,878	0,840	0,841

Bu indeks o'rganilayotgan to'plamdagi barcha birliklar bo'yicha mehnat unumdorligining necha marta oshganligini (kamayganligini) yoki o'sish (pasayish) necha foizni tashkil etganligini ko'rsatadi. Mazkur indeksdan foydalangan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi bo'yicha mehnat unumdorligi dinamikasi aniqlandi [3-jadval].

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mahsulot hajmining o'sish sur'ati xodimlar sonining o'sish sur'atidan pastligi natijasida mehnat unumdorligi darajasi pasaygan. Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona hududlarida esa mehnat unumdorligi darajasining oshganligini ko'rishimiz mumkin.

3-jadval ma'lumotlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududlarida 2013–2023-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnat unumdorligining eng yuqori ko'rsatkichi 2015-yilda 0,963 martaga oshganligi (oldingi yilga nisbatan), eng

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

past ko'rsatkich esa 2019-yilda 0,787 martani tashkil etganligi aniqlandi. Mehnat unumdorligi eng yuqori bo'lgan hudud Toshkent (3,589), eng past hudud esa Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,051)ni tashkil qilgan. Shu bo'yicha 3 ta guruhga ajratamiz (3-jadvaldan foydalanib tuzilgan):

1-guruh: 2,409 – 3,589

2-guruh: 1,230 – 2,409

3-guruh: 0,050 – 1,230

2010–2023-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnat unumdorligi darajasining o'rtachadan yuqori bo'lgan hududlarga Qashqadaryo (2,544), Namangan (3,406), Toshkent (3,589) kirgan bo'lsa, o'rtacha mehnat unumdorligiga erishgan hududlarga Farg'ona (1,294), Samarqand (1,522), Andijon (2,257) kiritilgan. O'rtachadan past hududlarga esa Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,051), Navoiy (0,285), Sirdaryo (0,387), Xorazm (0,513), Jizzax (0,622), Surxondaryo (0,652), Buxoro (0,658) viloyatlari kirgan.

Yuqorida keltirilgan statistik tahlillardan ko'rinib turibdiki, o'rtachadan past bo'lgan 7 ta hududda mehnat unumdorligi past darajada ekanligini [4-jadval] ko'rishimiz mumkin.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mehnat unumdorligi dinamikasi bo'yicha guruhlanishi¹

Guruhlar	Hududlar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda 2013-2023-yillarda o'rtacha mehnat unumdorligi dinamikasi	Baholanishi
2,409-3,589	Toshkent	3,589	O'rtachadan yuqori
	Namangan	3,406	
	Qashqadaryo	2,544	
1,230-2,409	Andijon	2,257	O'rtacha
	Samarqand	1,522	
	Farg'ona	1,294	
0,051-1,230	Buxoro	0,658	O'rtachadan past
	Surxondaryo	0,652	
	Jizzax	0,622	
	Xorazm	0,513	
	Sirdaryo	0,387	
	Navoiy	0,285	
	Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,051	

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida innovatsiya faoliyatining rivojlanishini ta'minlashda, fikrimizcha, quyidagi dastaklardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- ichki va tashqi bozorda innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabni rag'batlantirish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

- fan-texnika va ilmiy tadqiqotlar generatsiyasi sektorining natijadorligini oshirish;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida hududlarda kadrlar salohiyatini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi bugungi kunda mamlakatimizda eng yirik mehnat bozori, mulkdorlarning oʻrta sinfini shakllantirishning asosiy omili, millionlab odamlar uchun daromad va farovonlik manbai boʻlib, ular oʻz biznesini rejalashtirish va rivojlantirish orqali iqtisodiyotimiz barqarorligini taʼminlashdan eng koʻp manfaatdor boʻladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son “Oʻzbekiston — 2030 strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Sayfullaev S.N. Hududlarni innovatsion rivojlantirishda kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarni statistik baholash. “Zamonaviy biznesni boshqarish, iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar va ijtimoiy fanlarni rivojlantirish: nazariya va amaliyot uygʻunligi” mavzusidagi oliy oʻquv yurtlararo xalqaro konferensiya. – T.: Moliya-iqtisod, 2021-yil 24-may, 315–319-betlar.
3. Sayfullaev S.N. Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion rivojlanishini statistik tahlili. *Iqtisodiyotda innovatsiyalar* ilmiy elektron jurnali, 2020-yil, 10-son, 69–75-betlar.
4. Akbarova B. *Empiric Analyzing for Net Revenues from Sales of Products by Small Business*. Asian Journal of Technology & Management Research, 2023.
5. Akbarova B., Qizi K.M.J. *Role of Business in the Economy of Country: A Case of Uzbekistan*. Asian Journal of Technology & Management Research, 2023.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**